O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO`LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



SAMARQAND 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025-yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

МИНИСТЕРТСВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ИНВЕСТИЦИИ И ИННОВАЦИИ”

Материалы Республиканской научно-практической конференции на тему

“ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”

(24-25 октября 2025 г.)

САМАРКАНД – 2025

UO'K:330.322:330.15
B 49
KBK: 65.9(5O')-56

"Yashil texnalogiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar". 2025-yil 24-25 oktabr, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Samarqand: SamISI, 2025 - 960 bet.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: assistent D.A.Miyassarov.

Nashr uchun mas'ullar:

A.Bektemirov - iqtisodiyot fanlari doktori, prof., N.H.Ruzibayeva - dotsent, PhD, A.A.Turayev - dots.v.b., PhD, A.A.Bekmurodov - dots.v.b., PhD, S.N.Baratov dots.v.b., PhD, B.M.Quliyev - dots.v.b., PhD, O.Y.Ashurova - katta o'qituvchi, G.T. D.F.Nasirov - katta o'qituvchi, G.T.Qarajanova - katta o'qituvchi, E.A.Nozimov - katta o'qituvchi, Z.X.Rafiyeva - assistent, G.A.Xolmirzayeva - assistent, M.S Qarshiyeva - assistent, Y.J.Xaknazarova - assistent, A.A.Axrorov - assistent.

Sahifalovchilar: O.Yu.Ashurova, A.A.Turayev, E.A.Nozimov, G.T.Qarajanova, Z.X.Rafiyeva, M.S Qarshiyeva, G.A.Xolmirzayeva,

"Yashil texnologiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini ishlab chqishga, energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishda yashil texnologiyalar va ularni rivojlantirishga, yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi muammo va yechimlarga, yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali va uning sifatini oshirishga, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalariga hamda bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlashga va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va ma'ruza tezislari o'rin olgan.

Ilmiy to'plam Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-09-586-3

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025

✓ Xalqaro moliyaviy tashkilotlar (OECD, IFC, MDB) bilan hamkorlikni kuchaytirish;

✓ Yashil obligatsiyalar uchun soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini yaratish;

✓ Mahalliy banklar va investitsion institutlarda “yashil moliyalashtirish” bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash.

Bu chora-tadbirlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki mamlakatning xalqaro moliya bozoridagi ishonchliligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayzieva D., Achilov O. O‘zbekistonda “yashil” moliyalashtirish: “yashil” obligasiyalarni joriy etishdagi imkoniyatlar va muammolar. — Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024. Vol.2, №10. – B.5–6. URL:

2. OECD. Financing Uzbekistan’s Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance. — Paris: OECD Publishing, 2023. – P.39–40. URL:

3. International Finance Corporation (IFC). Emerging Market Green Bonds Report 2023. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. – P.3. URL: https:

Kreativ iqtisodiyot sharoitida hududlarda turizmning rivojlanish holati va tendensiyalari

Sh.E.Abdurasulov-SamISI,Turizm kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mamlakatimiz turizm salohiyati, mavjud resurslari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad xalqaro turizm raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha top 50 talikka kirish hisoblanadi. Respublikamizga tashrif buyuruvchi turistlar soni yildan yilga ko‘paymoqda. Maqolada kreativ iqtisodiyot sharoitida hududlarga tashrif beruvchi turistlar oqimini oshirish bo`yicha masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ iqtisodiyot, xalqaro turizm, turizm, turistik infratuzilma, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, mahalliy an’analar, turistik salohiyat, servis xizmatlari, xorijiy turistlar, brend strategiyasi.

Jahonda turizm sohasining multiplikativ ta’siri natijasida sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyati hamda mahalliy byudjetning daromadlaridagi hissasi oshishi kuzatilmoqda. Global iqtisodiy taraqqiyotning drayveri sifatida turizm mamlakatlar investitsion faolligini qo‘llab-quvvatlaydi va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan hududlarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. “Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda xalqaro turizm bo‘yicha eksport daromadlari 1,8 trillion AQSh dollariga yetgan, turizmning jahon YaIMga bevosita hissasi 3,4 trillion AQSh dollarini tashkil yetib, bu global yalpi ichki mahsulotning 3 %ga tengdir”[294].

[294] https://en.unwto-ap.org/news/worldtourismbarometer-sept2024/ World Tourism Barometer : September 2024

Xalqaro amaliyotda turizmning iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar hududning an’anaviy iqtisodiy resurslariga tayangan holda olib borilmoqda. Ammo turizm rivojidan uzoq muddatli ijobiy natijalarga yerishish uchun turistik-motivatsion resurslarning iqtisodiyotga ta’sirini ham hisobga olish zarur. Shu jihatdan ham bugungi kunda hududlarni barqaror rivojlantirishda turistik-motivatsion resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb yetmoqda.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va go‘zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimiz hududlarida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlar samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida “xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish. Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish”[295] vazifalari belgilangan. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda respublikamiz hududlarida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish, hududlarda turizm ko‘rsatkichlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida bizlar mamlakatimiz va uning hududlarida turizm sohasining rivojlanish holatini tahlil qildik.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad xalqaro turizm raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha top 50 talikka kirish hisoblanadi. Respublikamizga tashrif buyuruvchi turistlar soni yildan yilga ko‘paymoqda, jumladan, 2020 yilda 1,5 million, 2021 yilda 1,9 million, 2022 yilda 5,2 million, 2023 yilda 6,6 million va 2024 yilga borib salkam 8 millionga[296] yaqin turist tashrif buyurgan

Keltirilgan tahlil ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 7957,2 ming nafarni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2023 yilning mos davriga nisbatan ularning soni 20,1 % ga oshgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi, ming kishi[297]

Yil lar	Turistlar soni, ming kishi	Farqi (+;-)		O‘zgarish sur’ati, %	
		2020 yilga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	2020 yilga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan
2020	1504,1	-	-	100,0	100,0
2021	1881,4	377,3	377,3	125,1	125,1
2022	5232,8	3728,7	3351,4	347,9	278,1

[295] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.- https://lex.uz/ru/docs/-6600413

[296] Respublikaga kelganlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari taqdim etgan aniqlashtirilgan ma’lumotlari asosida shakllantirildi

[297] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

2023	6626,3	5122,2	1393,5	440,5	126,6
2024	7957,2	6453,1	1330,9	529,0	120,1

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Xorijiy turistlar tashrifi bo‘yicha O‘zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 118,0 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019 yilda O‘zbekistonga 6748,0 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 7957,2 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur’atlar bilan rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.
- Mamlakatimizga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni tahlil olib borilgan 2020-2024 yillar oralig‘ida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2020 yilga nisbatan 2021 yilda xorijiy turistlar soni 1,2 martaga, 2022 yilda 3,5 martaga, 2023 yilda 4,4 martaga va 2024 yilda esa 5,3 martaga ko‘paygan. Bunga esa, mamlakatimizda viza rejimini soddalashtirish, sohaning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, soha bilan bog‘liq loyihalarga investitsiyalar kiritish, yirik tadbirlarni o‘tkazish kabi amaliy ishlar olib borilganligi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Transport xizmatlari turizm sohasi va uning asosiy infratuzilmalari - ekskursiya, joylashtirish, ovqatlantirish kabi tarmoqlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, transport turizmning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, sayohatchilarni manzilga yetib borish, atrofni ko‘rish va yashash manziliga qaytish uchun zarur vosita va xizmat turi hisoblanadi. Transport xizmatlari tom ma’noda turizmning "qon tomirlari" bo‘lib, turizm infratuzilmasining rivojlanishi uchun asosiy omildir. Shu bois, bizlar mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar qaysi transport vositalari orqali chegaradan o‘tganliklariga oid ma’lumotlarni tahlil qilishni lozim topdik.

Keltirilgan diagrammadan ma’lumki, respublikamizga 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida havo transporti (aviatransport)da kelgan sayyohlar soni 1378,9 ming kishini, jamiga nisbatan hisoblanganda - 17,3 %ni, temir yo‘l orqali kelganlar – 97,8 ming kishini va 1,2 %ni, avtomobil transportida kelganlar – 166,4 ming kishini va 2,1 % ni tashkil etgan. Sayyohlarning eng ko‘p qismi, ya’ni 6314,9 ming nafari, ya’ni jami kelganlarning 79,4 % chegarani piyoda kesib o‘tgan.

Turistik maqsadlarda MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan chet ellik fuqarolar soni 2023 yilga nisbatan 1075,2 (7184,2-6109,0) ming kishiga va 17,6 (7184,2:6109,0*100) % ga ko‘paydi, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni esa 49,4 % ga oshdi. 2024 yilda O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 7184,2 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlar 7957,2 ming kishi (7184,2+773,0)ning 90,3 (7184,2*100:7957,2) % ini tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlardan tashrif buyurgan chet ellik fuqarolar soni 773,0 ming kishiga yetib, ularning ulushi 9,7 % ni tashkil qilgan.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning o‘sishi jahon bozoriga bog‘liq bo‘lmoqda. Turizm davlatlarni o‘zaro yaqinlashtiribgina qolmay, balki xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda. Shuning uchun, xalqaro turizm industriyasini oqilona tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish, joylashtirish vositalari turlarini ko‘paytirish va takomillashtirish hamda bu borada jahon tajribasini

qo‘llash zarurati sezilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalar singari turizm sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyatida turizm va mehmondo‘stlik salohiyatini kuchaytirish hamda ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishalari

A.Y.Talibova-SamISI,Turizm kafedrasi dots.v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatining turizm salohiyati, mavjud resurslari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, ekskursiya xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekskursovodlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda mahalliy aholi ishtirokiga asoslangan yangi turizm modellarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar:turizm, turistik infratuzilma, ekskursiya faoliyati, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, raqamli texnologiyalar, ekoturizm, gastronomik turizm, turizm marketingi, mahalliy an’analar, Samarqand, turistik salohiyat, servis xizmatlari, ekskursovod tayyorlash, AR/VR texnologiyalari, brend strategiyasi.

Samarqand viloyati jahon sivilizatsiyasi tarixi va madaniyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan, Buyuk Ipak yo‘li davrida iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning yirik markazlaridan biri sifatida shakllangan hudud hisoblanadi. Bugungi global turizm industriyasining jadal rivojlanishi sharoitida Samarqand mamlakatning turistik salohiyatini namoyon etuvchi strategik makon sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Viloyatda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan ko‘plab me’moriy yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros elementlari, tabiiy landshaftlar va etnografik resurslar mavjud bo‘lib, ularning barqaror rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida ham yirik turistik markazlardan biri hisoblanadi. Bu hududda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy meros ob’ektlari, tarixiy yodgorliklar, boy an’anaviy madaniyat va mehmondo‘stlik fazilatlari mavjud. Shu bilan birga, turizm sohasi iqtisodiyotning diversifikatsiya qilingan tarmoqlaridan biri sifatida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Turizm salohiyatining asosiy jihatlari.Madaniy va tarixiy meros – Samarqandda Registon majmuasi, Shohizinda nekropoli, Gur-Emir maqbarasi, Bibixonim masjidi va boshqa kabi jahon ahamiyatiga ega inshootlar mavjud.

	HISOBINING TASHKIL ETILISHI	
Munira Yusupova Chori Qizi	YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI KO‘LAMINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	868-870
Sh.E.Abdurasulov	KREATIV IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARDA TURIZMNING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI	870-873
A.Y.Talibova	SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH HAMDA EKSKURSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHALARI	873-875
Komilova Mukammal Shavkatovna	TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT SIYOSATIDA MOSLASHUVCHANLIK VA INVESTITSION TARKIBIY QISMLARNING ROLI HAMDA ULARNI TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI	875-879
Komilova Mukammal Shavkatovna	TIJORAT BANKLARI DEPOZITLARINING MAJBURIYATLARGA NISBATI VA FOIZ SIYOSATI	879-882
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	OLIY TA’LIMGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	883-886
Quliyev Begimqul Melikovich	INNOVATSIYA VA INVESTITSIYA JARAYONI: KONSEPTSIYA VA MOLIYALASHTIRISH XUSUSIYATLARI	887-890
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI KENGAYTIRISHDA VENCHUR KAPITALNING STRATEGIK O'RNI: DOLZARB MASALALAR	891-895

	VA BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN YECHIMLAR	
Karimov Dilshod Turabboevich	O‘ZBEKISTONDA O‘RMON XO‘JALIKLARINI MOLIYALASHTIRISH HOLATI, TAHLILI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	895-899
A.T.Raxmatullayev	Turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlashning iqtisodiy mohiyati va zarurati	900-906
A.T.Raxmatullayev	Turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash modeli va mehnat bozorida bitiruvchilarni ishga jalb qilish jarayonlari	906-911
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	Yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirish: Venchur kapital orqali muammolarni yengish va yechimlar taklif etish	911-915
Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna	XUSUSIY INVESTITSIYALAR, IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISHIGA TASIRI	916-918
Munavvarov Shohboz Asomiddin o‘g‘li	O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMA VA YASHIL TEXNALOGIYALARNING O’RNI	918-921
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH YO‘LLARI	922-924
Исмаилов Аллаёр Рашидович	ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА КОРПОРАТИВ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР	924-928
Насиров Дилшод Фархадович	ФИНАНСОВЫЕ ИСТОЧНИКИ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	928-932

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025-yil 24-25 oktabr)

“CHINGIZ ART GROUP” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2025

ISBN: 978-9910-09-586-3

© “CHINGIZ ART GROUP” MChJ nashriyoti,
Samarqand 2025 y.

4893

2025-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 59.75
Buyurtma № 0116B/25. Adadi 30 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.